

PUDRAT SHARTNOMASI (KONTRAKT) № 12

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan **Bandixon tuman tibbiyot birlashmasi** nomidan nizom asosida ish yurituvchi, raxbari **A.Sattorov** bir tomondan, keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan **MCHJ STRONG-STROY-SERVIS** nomidan nizom asosida ish yurituvchi raxbari **A.IBODULLAYEV** ikkinchi tomondan Bandixon tuman tibbiyot birlashmasi hududida joylashgan avtonaves va omborxonalar binolarini joriy ta'mirlash bo'yicha mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. TA'RIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi;

- ijro xujjatlari – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarini bajarishda qo'llaniladigan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa xujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlar;
- qurilish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;
- vaqtinchalik inshootlar – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xar qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;
- berkitiladigan ishlar – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;
- shartnoma narxini bo'lib chiqish – ishlarning xar bir bosqichi va yoki turlari qiymatini aniq belgilagan xolda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. SHARTNOMA MAVZUSI.

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq Bog'ot tumani 6-son umumiy o'rta ta'lim maktabini joriy ta'mirlash ko'zda tutilgan loyixa bo'yicha joriy ta'mirlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, ishlar qiymati barcha soliqlar (NDS siz), yig'imlar, ajratmalar va pudratchining boshqa xarajatlarini o'z ichiga olgan xolda joriy narxlarda **185 500 000 (Bir yuz sakson besh million besh yuz ming)** so'mni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi xollar bundan mustasno:

- qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlar qiymati Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;
- ob'ektning qurilishi bir yildan ortiq muddatga o'zgartirilganda.

5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

7. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun: -barcha ishlarni mazkur shartnomada xamda unga 2-ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

- qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni ta'minlaydi;
- qurilish maydoni xududida vaqtinchalik inshootlar qurish;
- Buyurtmachini subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;
- qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muxitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muxofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuniingdek yoritish chiroqlari o'rnatish;
- qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;

- qurilish maydoni xududida vaqtinchalik inshootlar qurish;
 - Buyurtmachini subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'grisida xabardor qilish;
 - qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muxitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muxofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuniingdek yoritish chiroqlari o'rnatish;
 - qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;
 - mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'grisidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob – uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar konstruksiyalar xamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;
 - qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;
 - qurilishda tavakkalchilik sug'urtasi uchun belgilangan summaga sug'urta tashkilotlaridan biri bilan tavakkalchilik sug'urtasi to'grisida shartnoma tuzadi va sug'urta shartnomasi bilan sug'urta polisini byurtmachiga taqdim qiladi.
 - mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'lik xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
8. Pudratchi mavjudligini kafolatlagan o'zining 20% ga teng bo'lgan va unga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan berilishi kafolatlangan 20% aylanma mablag'larini mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ob'ekt xarajatlari uchun unumli ishlatish majburiyatini oladi.
9. Pudratchi ob'ektni foydalanishga topshirish uchun Buyurtmachiga barcha ishlar bajarilganini isbotlovchi xujjatlarni (исполнительная документация) to'lik xajmda taqdim qiladi.
10. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'lik mulkiy javob beradi.

V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

11. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:
- mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lgan davrga dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;
 - ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;
 - Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;
 - moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 1-ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;
 - Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlari ro'yxatini taqdim etish;
 - mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatlarini oladi;
12. Buyurtmachi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan uz majburiyatlarini bajarmasa yoki yetarli tarzda bajarmasa pudratchi oldida to'lik mulkiy javob beradi.

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI.

13. Shartnoma tomonlar uni imzolagandan va G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin yuridik kuchga kiradi.
14. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilingan ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq ishlarni bajaradi.
15. Ob'ektni 2022 yil iyul oyida foydalanishga topshirilishi belgilanadi.

VII. TO'LOVLAR VA XISOB – KITOBLAR

16. Shartnoma bo'yicha o'zaro xisob-kitoblar milliy valyuta - «so'mda» qilinadi.
17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30% miqdorida avans o'tkazadi, bu 55 600 000 (Ellik besh million olti yuz ming) so'mni tashkil etadi.
18. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun byudjetdan maqsadli berilgan mablag'lar o'ttiz bank kunida moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi. (1,2-ilovalar)
19. Buyurtmachi tamonidan joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar xajmi va sifati tekshirilib qabul qilingandan keyin xaqiqiy bajarilgan ishlar qiymatidan berilgan avans summagini proporsional ushlab qolgan xolda moliyalashtirish jadvali bo'yicha amalga oshiradi.

20. Pudratchining xisob rakamiga tushadigan mablaglar ushbu ob'ekt qurilishi xarajatlariga, shuningdek ta'minotchilarga, ob'ekt qurilishiga zarur bo'lgan materiallar, texnika resurslari, mexnatga xaq to'lash, ob'ekt qurilishida ishtirok etayotgan yordamchi tashkilotlarga to'lash uchun va Ushbu ob'ekt qurilishining boshqa xarajatlariga qat'iy sarflanadi.

21. Pudratchi joriy moliyalashtirish uchun xisobot o'ying oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun xisob kitob uchun qurilish montaj ishlari miqdori, xarajatlari to'grisidagi «Bajarilgan ishlar qiymati to'grisidagi ma'lumotnoma xisob-varaq-fakturani» o'zi tuzib taqdim qiladi. Buyurtmachi bajarilgan qurilish-montaj ishlarining miqdori, sifati va xarajatlarini tekshirib qabul qilib imzolaydi.

22. Buyurtmachiga joriy moliyalashtirish va yakuniy xisob-kitob uchun, bajarilgan qurilish-montaj ishlarini miqdori, sifati va xarajatlari tekshiruvidan so'ng Pudratchi tomonidan tuziladigan va Buyurtmachi tomonidan qabul qilib imzo chekiladigan «Bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma-xisob-varaq-faktura» asos bo'ladi.

23. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk xuquqini o'zida saqlaydi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

VIII. ISHLARNI BAJARISH.

24. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

25. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siksiz tanishish xuquqiga egadir.

26. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

27. Pudratchi ishlarni bajarish loyixasiga va mazkur shartnomaning VI-bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va ish jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

28. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish xujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar xisoblanmaydi.

29. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u xolda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularni zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechiikishi okibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

30. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida axamiyatga ega bo'lgan xollar va xolatlar (ishlarni boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarni qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'lik to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'grisidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IX. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) XOLATLARI.

31. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'lik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'lik bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

32. Agar yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muxokama qiladilar.

33. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

XI. KAFOLATLAR.

34. Pudratchi:-barcha ishlarni to'lik xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;- loyixa xujjatlariga xamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatizatsiyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofiqligini;

- ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

- ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

Mavjud nuqsonlar va ularning bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning umumiy summasini 5% miqdorida jarima solish xuquqiga ega.

XII. SHARTNOMANI BEKOR KILISH.

35. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin joriy ta'mirlash boshlanishi Buyurtmachiga bog'lik bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

- ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortik muddatga ko'paygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

- Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

36. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'lik bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan ikki oydan ortiq muddatga to'xtatib quyilganda;

- Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari umuman bajarilmaganda;

qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

37. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

38. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

39. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

40. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun xujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

XIII. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

41. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'grisida» gi qonunida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6 may 2003 yildagi PF-3240 sonli farmoni, boshqa qonun xujjatlarida xamda

mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi va ikkinchi tamonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi.

42. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda Buyurtmachi Pudratchi oldida quyidagi xollarda javobgar bo'ladi va:

- belgilangan muddatda ob'ektni ish boshlash uchun pudratchiga topshirma dalolatnoma bo'yicha buning oqibatida ishlarni bajarish jadvalida bajarish ko'zda tutilgan ishlarning bajarilmagan qismining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- buyurtmachining xisob raqamiga maqsadli moliyalashtirish uchun tushgan pul mablaglarini uch bank kunida sababsiz pudratchining xisob rakamiga o'tkazib bermasa ushlab turilgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;

- shartnomaga muofiq ishlarni bajarish jadvali bo'yicha bajarilgan ishlar xajmini asossiz ravishda qabul qilib tasdiqlashdan bosh tortgani uchun ushbu qabul qilish, tasdiqlashdan bosh tortgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;

- shartnoma shartlariga muofiq tayyor xolda qabul qilish uchun taqdim qilingan ob'ektni asossiz ravishda qabul qilishdan bosh tortsa shartnoma qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

43. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda Pudratchi Buyurtmachi oldida quyidagi xollarda mulkiy javobgar bo'ladi va:

- Ishlarni bajarish jadvalida belgilangandan kam xajmda ishlarni bajarsa, majburiyatlarning bajarilmagan qismidan xar kechiktirilgan kun uchun 0.5% miqdorda penya to'laydi.

- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdorda bajarib tegishli tartibdagi ma'lumotlar bilan xisobot oyining oxirgi kuniga qadar tasdiqlatmasa «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan ishlar qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdordan kam bajarsa, bajarilmagan qismining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- ob'ektni shartnomada belgilangan muddatda tayyor xolda foydalanishga topshirma shartnoma qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- Buyurtmachi, nazoratchi, foydalanuvchi tashkilotlar va ishchi komissiyasi tamonidan aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni belgilangan (o'n kundan ortiq bo'lmagan) muddatda bartaraf qilmasa ushbu aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi.

44. Agarda tomonlardan biri o'z rekvizitlarini shu jumladan yuridik va pochta manzillarini, telefon raqamlarini, korxonasi atamasi yoki maqomini noto'g'ri bersa va o'zgarganligi to'g'risidagi ma'lumotni uch kalendar kunda ikkinchi tamonga yozma xabar bermasa aybdor tamon ikkinchi tomonga shartnoma baxosining 0,1% miqdorida jarima to'laydi.

45. Bir tamonning aybi bilan shartnomani bekor qilishga to'g'ri kelsa, aybdor tamon ikkinchi tamonga barcha zararlarni qoplaydi, amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda.

46. Tamonlarning mulkiy javobgarlikka tortilib to'laydigan neustoyka, shtraf va penyalari shartnoma qiymatining 30% oshmasligi kerak.

47. Tamonlar neustoyka, jarima, penya kabi mulkiy talablarini dalolatnoma asosida to'lov talabnomasi bo'yicha aktseptsiz amalga oshirishga xalidir.

XIV. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.

48. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda yoki o'zgartirishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan barcha nizoli masalalarni tomonlar muxokama bilan kelishuvga erishmasalar, u xolda ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojat qilishlari mumkin.

XV. ALOXIDA SHARTLAR

49. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari uz kuchini yo'qotadi.

50. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning aloxida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish xuquqiga ega bo'lmaydi.





51. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, xaqiqiy xisoblanadi.

52. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bulishiga olib keladigan xar qanday axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.
53. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u xolda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xaq to'lashni kechiktirishga xaqlidir.
54. Mazkur shartnomaning joriy narxlardagi kelishilgan summasi me'yoriy-qonun xujjatlariga Q.Q.S. to'grisida o'zgartirishlar kiritilsa qayta ko'rib chiqiladi.
55. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha xollar uchun amaldagi qonun xujjalari qo'llaniladi.
56. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagan xamda Gaznachilikdan ro'yxatdan o'tgandan keyin yuridik kuchga kiradi va bu shartnoma 31.12.2022 yilgacha amal qiladi.
57. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lib 2 nusxada tuzildi.

XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.

"PUDRATCHI"

"BUYURTMACHI"

| | |
|--|---|
| MCHJ STRONG-STROY-SERVIS | Bandixon tuman tibbiyot birlashmasi |
| Manzil: Termiz shahar | Manzil: Bandixon tuman Bandixon mahallasi |
| Tel : +998937693208 | Tel./faks: 76-37-41-648 |
| Счет: 20208000905436411001 | sh/h: 100022860222037073101054001 |
| ИНН организации: 308831574 ТЕРМИЗ Ш., "ИПОТЕКА-БАНК" АТИБ СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТ ФИЛИАЛИ | STIR 200505608 OKONX 97600 G'aznachilik bo'linmasi nomi Bandixon tuman bo'yicha Gaznachilik bo'linmasi G'azna h/v 23402000300100001010 |
| Bankning nomi: ТЕРМИЗ Ш., "ИПОТЕКА-БАНК" АТИБ СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТ ФИЛИАЛИ MFO 00356 INN: 308831574 | Bankning nomi: Markaziy bank Toshkent MFO 00014 INN: 201122919 |
| Rahbar   | Rahbar   |
| A. IBODULLAYEV | A. Sattorov |

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 105176 на приобретение Bandixon tuman tibbiyot birlashmasi hududida joylashgan avtonaves va omborxonа binolarini joriy ta'mirlash Способ

проведения электронный

Дата 21.06.2022

Время рассмотрения 21.06.2022 16:29

Конкурсная комиссия Бандихон туман Тиббиёт бирлашмаси марказий шифохонаси, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|------------------------------|--|---|---|
| Председатель комиссии | SATTOROV ASQAR NORQUVATOVICH | Bandixon TTB boshlig'i | Бандихон туман Тиббиёт бирлашмаси марказий шиfoxонаси |
| Секретарь комиссии | TO'RAYEV ABRAYQUL NORQO'CHQAROVICH | KUK raisi | Бандихон туман Тиббиёт бирлашмаси марказий шиfoxонаси |
| Член комиссии | ALLABERDIYEV BAXTIYOR SOATMURODOVICH | Xo'jalik mudiri | Бандихон туман Тиббиёт бирлашмаси марказий шиfoxонаси |
| Член комиссии | QULDOSHEV NURBEK ULUG'BEK O'G'LI | boshliqning raqamlashtirish va davlat xususiy sherikchilik bo'yicha movini | Бандихон туман Тиббиёт бирлашмаси марказий шиfoxонаси |
| Член комиссии | AXMEDOV XAMDAM YULDOSHEVICH | boshliqning DIB movini | Бандихон туман Тиббиёт бирлашмаси марказий шиfoxонаси |
| Член комиссии | ESHQOBILOV JONON CHORIYEVICH | Ombor mudiri | Бандихон туман Тиббиёт бирлашмаси марказий шиfoxонаси |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 21.06.2022 года № лота 105176.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.техничo-квалификационной части: 60.00 / Весовой коэф. ценовой части: 40.00)

Мин. балл: 50

Предмет закупки:

| | |
|--------------------------------------|--|
| Наименование товара (работы, услуги) | Услуга по текущему ремонту нежилых зданий |
| Подробное описание | Avtonaves va omborxonа binolarini joriy ta'mirlash |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 186 000 000.00 |

| | | | | | | |
|-------------------------------|----|---|----|------------|--|--|
| JAVOHIRBEK SURXON QURILISH XK | 15 | 1 | 14 | Экспертная | | |
| MCHJ STRONG-STROY-SERVIS | 15 | 1 | 15 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|-------------------------------|-----------------|--------------------|------------------------|-------------------------|
| JAVOHIRBEK SURXON QURILISH XK | 186 000 000.00 | 185 900 000.00 | 21.06.2022 10:17:07 | 39.91 |
| MCHJ STRONG-STROY-SERVIS | 186 000 000.00 | 185 500 000.00 | 21.06.2022 12:36:20 | 40.00 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|-------------------------------|---------------------------------|--------------------------------|---------------|
| JAVOHIRBEK SURXON QURILISH XK | 55.9998 | 39.91393 | 95.91373 |
| MCHJ STRONG-STROY-SERVIS | 60 | 40 | 100 |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 105176 от 21.06.2022 года на приобретение Bandixon tuman tibbiyot birlashmasi hududida joylashgan avtonaves va omborxonа binolarini joriy ta'mirlash определила победителем:

MCHJ STRONG-STROY-SERVIS
308831574

и резервный исполнитель: JAVOHIRBEK SURXON QURILISH XK (307129157)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|-----------------------|--------------------------------------|-------------|-------------|
| Председатель комиссии | SATTOROV ASQAR NORQUVATOVICH | Согласен | |
| Член комиссии | ESHQOBILOV JONON CHORIYEVICH | Согласен | |
| Член комиссии | AXMEDOV XAMDAM YULDOSHEVICH | Согласен | |
| Член комиссии | ALLABERDIYEV BAXTIYOR SOATMURODOVICH | Согласен | |
| Член комиссии | QULDOSHEV NURBEK ULUG'BEK O'G'LI | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"STRONG-STROY-SERVIS" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"STRONG-STROY-SERVIS" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

06.09.2021

1033913

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

308831574

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, A.NAVOIY KO'CHASI 16-UY,

Guvohnoma:

Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, DAVLAT XIZMATLARI tomonidan
MARKAZI berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organing to'liq nomi):



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi: Xo'jalik shartnomasi.

2. Loyihaning nomi: Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan **Bandixon tuman tibbiyot birlashmasi** nomidan nizom asosida ish yurituvchi, rahbari **A.Sattorov** bir tomondan, keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan **MCHJ STRONG-STROY-SERVIS** nomidan nizom asosida ish yurituvchi rahbari **A.IBODULLAYEV** ikkinchi tomondan Bandixon tuman tibbiyot birlashmasi hududida joylashgan avtonaves va omborxonalar binolarini joriy ta'mirlash bo'yicha mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. TA'RIFLAR

Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi:

-ijro xujjatlari – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarini bajarishda qo'llaniladigan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa xujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlar;

-qurilish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

-vaqtinchalik inshootlar – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xar qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

-berkitiladigan ishlar – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

-shartnoma narxini bo'lib chiqish – ishlarning xar bir bosqichi va yoki turlari qiymatini aniq belgilagan xolda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. SHARTNOMA MAVZUSI.

Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq Bog'ot tumani 6-son umumiy o'rta ta'lim maktabini joriy ta'mirlash ko'zda tutilgan loyixa bo'yicha joriy ta'mirlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi. Buyurtmachi esa Pudratchiga joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, ishlar qiymati barcha soliqlar (NDS siz), yig'imglar, ajratmalar va pudratchining boshqa xarajatlarini o'z ichiga olgan xolda joriy narxlarda 185 500 000 (Bir yuz sakson besh million besh yuz ming) so'mni tashkil etadi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Bandixon tuman Tibbiyot birlashmasi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 2022-yil 01-iyulda kiritilgan.

4. Xulosa: Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga - O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi 670-I-sonli "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-3953-sonli qaroriga asosan ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Bandixon tuman Adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish
markazi boshlig'i

O.T.Tog'ayev

2022-yil 01-iyul

